



**SANOAT KORXONALARINING EKOLOGIK
HUQUQBUZARLIKLARIDAGI O'RNI VA ULARNI HUQUQIY
JAVOBGARLIKKA TORTISH MEXANIZMLARI**

Voxidov Shohjahon Abduvosi o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Magistratura talabasi

e-mail: shohjahonvohidov21@gmail.com

Ma'lumki, dunyoning turli mamlakatlari o'z hududida ekologik inqirozni oldini olish maqsadida yangi va yangi qonunlar ishlab chiqmoqdalar va joriy qilmoqdalar. Shuningdek, iqlim o'zgarishining oldini olish maqsadida davlatlararo xalqaro konvensiyalar ishlab chiqilgan va amaliyotga tadbiiq etilmoqda. Toza havodan nafas olish va toza tabiat ne'matlaridan oziqlanish yer yuzidagi barcha mavjudotlarning birdek haqqi bo'lganidek, ushbu unsurlarni o'ziday saqlab qolish va kelajak avlodga yetkazish ham insoniyat gardanidagi eng muhim burch bo'lib qolmoqda.

Sanoat korxonalarining ekologik qonunbuzarliklari ko'pincha tizimli xarakterga ega. Ayniqsa, yirik metallurgiya, kimyo, neft-gaz, sement va energetika korxonalari chiqindilarni tozalash texnologiyalarini yetarlicha modernizatsiya qilmagani bois, ularning atrof-muhitga salbiy ta'siri yuqoriligicha qolmoqda.

Masalan, O'zbekistonda 2023 yilda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan o'tkazilgan nazorat tadbirlarida, sanoat korxonalarining 40 foizida chiqindi gaz va suvlarda zararli modda miqdori ruxsat etilgan me'yorlardan oshib ketgani aniqlangan. Bunga javoban bir qancha korxonalarga ma'muriy bayonnomalar tuzilgan bo'lsa-da, ko'p hollarda chora ko'rish jarayoni sust va kechikkan holda amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham ekologik nazoratni tobora jadallashtirish ishlari ko'rib chiqilmoqda va ekologik turdagi huquqbuzarliklar uchun jazo choralari qat'iylashmoqda. Biroq, ushbu sharoitda O'zbekiston havosi, xususan Surxondaryo viloyatining Denov, Uzun va Sariosiyo tumanlari havosi qo'shni Tojikiston davlati chegarasida joylashgan zavodlar tomonida aholi zararlanishda davom etayotgani va viloyat aholisi orasida nogiron va nuqsonli bolalar tug'ilishi keskin ko'payib ketishi va bu millat genofondiga brogan sari ta'sir qilayotgani hech kimga sir emas.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

Rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, "Tojikiston sanoatining tashrif qog'ozi" deb ta'rif berilgan zavod 1975-yilda qurilgan. Zavodning qo'shni davlat uchun ahamiyatini anglatish uchun yana bir-ikki raqam keltirish mumkin. "Talko" Tojikiston valyuta tushumining beshdan bir qismini ta'minlaydi. Mamlakat sanoat mahsulotlari umumiy hajmidagi ulushi 25 foizga teng, eksportning 30 foizi shu korxona ortidan.¹ Shu nuqtai nazardan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ekologik inspeksiya va sud tizimi o'rtasida muvofiqlashtirilgan hamkorlik zarur. Ayniqsa, ekologik jinoyatlar bo'yicha maxsuslashtirilgan tergov guruhlarini tashkil etilishi, ekologik huquqbuzarliklar uchun jinoiy javobgarlik choralari amalda qo'llanilishi dolzarbdir. Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish — xususan, raqamli ekologik monitoring, GIS-kuzatuv tizimlari, havoning real vaqt ko'rsatkichlarini aniqlovchi datchiklar — ekologik qonun buzilishining oldini olishda samarali vosita bo'lmoqda. Masalan, Xitoyda sanoat hududlarida o'rnatilgan avtomatik detektorlar orqali har bir korxona chiqindisi onlayn monitoring qilinadi va qonun buzilgan zahoti avtomatik jarima protokoli shakllanadi. Birgina misol O'zbekiston Ekologik harakatining baholashicha, "Talko" DUK tomonidan birgina oxirgi 5 yilning o'zida yetkazilgan umumiy iqtisodiy zarar 447,3 mln AQSh dollarini tashkil etadi. Shu bilan birga alyuminiy korxonasining deyarli 40 yillik faoliyati davomida mintaqqa iqtisodiyotiga, odamlar sog'lig'iga va atrof muhitga yetkazilgan haqiqiy zararni aniqlashning imkoni yo'q.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan Tojikiston Respublikasining hukumatiga "TALKO" davlat unitar korxonasining O'zbekiston hududidagi ekologik holat va aholining sog'lig'iga yetkazayotgan zararini bartaraf etish yuzasidan bir necha marotaba rasmiy murojaatlar yo'llangan. Biroq, yuqorida qayd etilganidek, Tojikiston tomonidan ikki tomonlama bitimlar va xalqaro majburiyatlarga amal qilinmagach, O'zbekiston Respublikasi 2010-yilda ushbu masalani xalqaro miqyosga olib chiqish va global e'tiborni jalb qilish yo'lini tutdi. Xususan, O'zbekiston mazkur ekologik inqirozni hal etish bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) va uning atrof-muhit muammolari bilan shug'ullanuvchi

¹<https://daryo.uz/2019/02/04/yashil-bo%25ca%25bblishga-intilayotgan-alyuminiy-zavodi-yoki-mirziyoyevdan-captiva-olgan-ne%25ca%25bcmat-hojining-oshkor-bo%25ca%25bblgan-siri>



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

maxsus tuzilmalari, jumladan BMT Bosh Assambleyasi, Atrof-muhit bo'yicha BMT dasturi (UNEP) va Jahon sog'liqni saqlash tashkilotiga (WHO) murojaat qildi. Ushbu xalqaro tashkilotlar Tojikiston hukumatini ekologik xavf tug'dirayotgan ishlab chiqarish faoliyatini zudlik bilan to'xtatishga da'vat etgan. Shu bilan birga, O'zbekiston Ekologik harakati tomonidan BMT Bosh kotibi Pan Gi Mun, BMTning Atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP) ijrochi direktori Ahim Shtayner va Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) bosh direktori doktor Margaret Chenga rasmiy murojaat yuborilib, Tojikiston hududida joylashgan alyuminiy zavodining sanoat chiqindilari tufayli ekologik holat yomonlashgan mintaqalarda yashovchi aholining salomatligi va ekologik huquqlarini himoya qilish bo'yicha choalar ko'rishga chaqirilgan edi. Mazkur muammo 2010-yil 16–17-noyabr kunlari Toshkent shahrida o'tkazilgan "Markaziy Osiyoning transchegaraviy ekologik muammolari: ularni hal qilishda xalqaro huquq mexanizmlarini qo'llash" mavzusidagi xalqaro konferensiyada, shuningdek, 2011-yil 9-dekabr sanasida tashkil etilgan "Ekologik xavfsizlik, sog'liqni saqlash xavfsizligidagi dolzarb muammolar: ularni hal etishda davlat institutlarining o'rni" nomli xalqaro davra suhbatida keng muhokama etilgan. Aholining ekologik xavfsizlik bo'yicha tashvishlarini inobatga olgan holda, O'zbekiston Ekologik harakati 2011-yilning sentabr va oktyabr oylarida "Talko" DUK rahbariyatiga zavod faoliyatining atrof-muhit va aholi salomatligiga ko'rsatayotgan salbiy, transchegaraviy ta'sirini muhokama qilish uchun yozma murojaatlar yuborgan. Murojaatlarda shuningdek, birgalikda ekologik monitoring o'tkazish, ifloslangan hududlarni aniqlash va zavodda yig'ilish o'tkazish taklifi ham ilgari surilgan. Biroq, O'zbekiston tomonidan yo'llangan ushbu taklif va murojaatlar hozirgacha qo'shni davlat tomonidan e'tiborsiz qoldirilmoqda. Xalqaro tajriba va tavsiyalar: Sanoat subyektlarini ekologik javobgarlikka tortishda quyidagi xalqaro tajribalarni inobatga olish lozim: Yevropa Ittifoqida har bir sanoat korxonasi uchun "Integrated Pollution Prevention and Control" (IPPC) ruxsatnomalari mavjud bo'lib, ular qat'iy ekologik mezonlarga asoslanadi. Ruxsatnoma shartlariga amal qilinmagan taqdirda, korxonalar faoliyati to'xtatilishi yoki yirik miqdorda jarimaga tortilishi mumkin.

AQShda "Environmental Protection Agency" (EPA) tomonidan yuritiladigan "Toxic Release Inventory" (TRI) ma'lumotlari ochiq e'lon qilinadi. Bu orqali har



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

bir sanoat korxonasi qancha zararli chiqindi chiqarayotganini jamoatchilik ham nazorat qilishi mumkin.

Germaniyada esa sanoat chiqindilari uchun progressiv tarifli ekologik soliqlar amalda bo‘lib, “kam chiqindi – kam to‘lov” tamoyiliga asoslanadi. Bu iqtisodiy rag‘batlantirish orqali korxonalarni ekologik innovatsiyalarga sarmoya kiritishga undaydi.

Sanoat korxonalari ekologik barqarorlikning eng muhim, lekin eng xavfli ishtirokchilaridan biri hisoblanadi. Shu sababli:

korxonalarning ekologik xavflilik darajasiga qarab differensial nazorat tizimi joriy etilishi;

ularning faoliyatini onlayn monitoring tizimlari orqali doimiy kuzatib borish;

ekologik ekspertiza va audit natijalariga asoslangan reyting baholash tizimi yaratish;

ekologik qonunbuzarliklar uchun zararni qoplash va tiklash majburiyatlarini sud orqali majburiy undirish tizimini kuchaytirish taklif etiladi.

Foydalanilgan Adabiyotlar Va Manbalari Ro`Yxati

1. <https://daryo.uz/2019/02/04/yashil-bo%25ca%25bblishga-intilayotgan-alyuminiy-zavodi-yoki-mirziyoyevdan-captiva-olgan-ne%25ca%25bcmat-hojining-oshkor-bo%25ca%25bblgan-siri>
2. <https://www.lex.uz/ru/docs/-2913059>
3. Article of Otamurodova Dildora Abdukarimovna. Economic analysis of pollution of the northern districts of Surkhandarya region by Tadjikistan's aluminum factory.
4. <https://www.lex.uz/ru/docs/-2913059>